O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SIFAT YASOVCHI QO‘SHIMCHALAR

F.G.Sharipov - Guliston davlat universiteti
E.F.Sharipova - Guliston davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adaboyoti ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Tilshunoslik an’anasida derivatsiya so‘z yasash jarayoni deganda so‘z yasash asosi va hosila orasida denotativ ma’nolarda farqning bo‘lishi tushuniladi. Chunonchi, **qush**parranda, hayvonot olamining bir turi; qushchi – qushlar bilan shug‘ullanuvchi / aloqador shaxs. Ikki so‘z borliqdagi ikki xil hodisani atab kelmoqda. So‘zlarning nomemasi ham, sememasi ham har xil – ularda faqat tarixiy o‘zakdoshlik aloqasi mavjud, xolos. Shu asosda derivatsiyani odatda leksik hodisalar sirasiga kiritadilar.

Relyatsiya deb esa asos va hosila orasida denotativ ma’nodagi farqning yo‘qligi tushuniladi: qush – qushni so‘zshakllari ham borliqdagi ayni bir narsani atab kelmoqda. Relyatsiya odatda grammatik hodisalar sirasiga kiritiladi.

Derivatsiya ham, relyatsiya ham umumlashgan (grammatik) ma’nolarni ifodalashning affiksatsiya, tovush almashunuvlari va ichki fleksiya, yordamchi so‘zlar, har xil takrorlar, kompozitsiya, so‘z tartibi, urg‘u, ohang v.h. kabi “Tilshunoslikka kirish” darsliklarida sanab o‘tilgan o‘n-o‘n ikki turning har biri bilan amalga oshirilishi mumkin.[4]

Bir qarashda derivatsiya va relyatsiya tilshunoslikning juda aniq ilmiy tushunchalari bo‘lib, munozaralarga o‘rin yo‘qdek ko‘rinadi. Lekin haqiqiy holat butunlay boshqacha.

Dialektikaning asosiy gnoseologik tamoyillaridan biri shuki, uning umumiylik va mutlaqlik tabiatiga ega bo‘lgan uch qonunidan birortasi ilmiy tadqiqot jarayonida inkor etilsa, ya’ni hisobga olinmasa, bu hol o‘z-o‘zidan qolgan dialektik qonun va katerogiyalarining inkoriga olib keladi. Arastu – Sossyur tilshunosligi qariyb 3000 yil davomida lingvistik hodisalar talqinida dialektikaning miqdoriy o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonunini hisobga olmay, formal mantiqning uchinchisi istisno qonuniga amal qilib keldi. Shuning uchun bu tilshunoslik, asosan, ayni bir hodisaning ikki chekkasini tavsiflashga va lisoniy birliklar-u hodisalar tabiatini mana shu chekka nuqtalar asosida aniqlashga va tavsiflashga intildi. Tilshunoslar (Y.Grimm, H.Paul, F.Fortunatov, A.Potebnya, A.Peshkovskiy, L.Sherba v.b.) bu haqda afsus-u nadomat bilan yozgan bo‘lsalar-da, amaliyotda undan voz kecholmaganlar, chunki tilshunoslikning o‘zi va uning barcha tadqiq, tahlil va tavsif tamoyillari – F.Bekonning ta’biri bilan aytganda – “sahna ruhi” (hamma ko‘nikib ketgan odat va ko‘nikma, ta’lim va tarbiya) formal mantiqning o‘sha qonuni asosida tuzilgan va talqin etilar edi. Bunda ayni bir hodisa unga ontologik xos va obyektiv bo‘lgan tarixiy taraqqiyot zanjiridan – miqdoriy o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlarga o‘tish jarayonidan – uzilib, ikki chekka

[4] Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M, Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28; Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28.; Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.372; Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.199–205.

nuqta – sifat o'zgarishlar bosqichi – mana bu, mana bu esa **e**mas, balki uning ziddi deb baholangan va bir-biridan uzilgan. [5]

Derivatsiya va relyatsiyaning substansial tadqiqida bu ilmiy tushunchalarning yuqorida sanab o'tilgan umumlingvistik talqiniga tayangan holda quyidagilarga qat'iy rioya qilish lozim. **Sifat derivatsiyasi** ikki usul bilan yasaladi, ya'ni qo'shimcha va so'zlarni bir-biriga qo'shish bilan yasaladi.

O'zbek tilida qo'shimcha qo'shish orqali sifat yasalish qolip anchaginani tashkil etadi:

- **ot + -li,** ya'ni asosdan anglashilgan narsa/predmetga egalik belgisini bildiruvchi sifat, asosdan anglashilgan narsa/predmetga me'yordan ortiq egalik belgisini bildiruvchi sifat rasmli, aqlli kabi.

- **ot +- dor,** ya'ni asosdan anglashilgan narsa-predmetga egalik belgisini bildiruvchi sifat va asosdan anglashilgan narsaning me'yordan ortiqligini bildiruvchi sifatlar yasaydi. Masalan, aloqador, mahsuldor kabi.

- **ser + ot,** ya'ni asosdan anglashilgan narsaning me'yordan ortiqligini bildiruvchi sifatlar yasaydi. Masalan, sersoqol kabi.

- **be + ot,** ya'ni asosdan anglashilgan narsaning yo'q ekanligini bildiruvchi sifatlar yasaydi. Masalan, bemajol kabi.

Umuman olganda sifat yasovchi qo'shimchalar **ba + ot** (basavlat), **no + ot (**noumid, nomard), **sifat + -chan** (kurashchan), **fe'l + -choq/chiq/chak** (erinchoq), **fe'l + -qoq/g'oq** (uyushqoq), **fe'l + -ag'on** (topag'on),**fe'l +-mon** (toparmon), **fe'l/taqlid + -(a) ki(qi)** (shartaki), **fe'l + -k/-q/-g'** (egik,), **fe'l + -kin/qin/g'in/g'un** (tushkun), **fe'l + -ma** qovurma, ko'chma, **fe'l + -(a)rli** (arzirli), **taqlid + -ildoq** (chiyildoq), **fe'l + -ch** (tinch), **ot + -iy/viy (**ilmiy, aqliy), **ot/ravish + -gi/ki/qi** (avvalgi), **ot + -i** (qozoqi), **ot/sifat+-cha** (o'zbekcha), **sifat + -namo** (darveshnamo), **ot + -simon** (sharsimon), **ot + -parvar** (xalqparvar) kabi holatlarda ham sifat yasalishi kuzatiladi. Ko'rib o'tilganlardan tashqari-aki (dahanaki), bad- (badaxloq), -shumul (olamshumul), -chil (dardchil), -kay(kungay), -don (gapdon), -msiq (qarimsiq), -kash(dilkash), -m(qaram), -lom (sog'lom), -qa (qisqa), -bop (qishbop), xush- (xushbichim) qo'shimchali qoliplar asosida ham sifat yasalgan.

So'zlarni bir-biriga qo'shish bilan qo'shma sifatlar yasaladi. Qo'shma sifat quyidagi qoliplar asosida hosil bo'ladi. Masalan, o**t+ot**: devsifat, s**ifat+ot**: xomkalla,**ot+sifat**: yoqavayron, **ravish+ot**: hozirjavob, **ravish+fe'l**: tezpishar, **fe'l+ fe'l**: ebto'ymas, **olmosh+ot**: o'zboshimcha, o**t+fe'l**: tilyog'lama, **olmosh+sifat**: o'zbilarmon, **son+ot**: ikkiyuzlamachi kabi holatlarda sifat yasaladi.

Ingliz tilida **sifat (adjective)** yasalishi ham fe'l kabi **affikslar** va **so'z o'zgarishi (conversion)** orqali amalga oshadi. Yasalishining asosiy yo'llari q**o'shimchalar orqali sifat yasash (Derivation with suffixes) bo'lib, -ful (to'la, ...li) – i**smlardan sifat yasaydi: beauty → **beautiful** (go'zal), help → **helpful** (yordamli); **-less (siz, ...siz) – i**smlardan sifat yasaydi, inkor ma'no beradi: hope → **hopeless** (umidsiz), care →

[5] Березин Ф.М. Общее языкознание // Учеб. пособие для студентов педагогических институтов по спец. – Москва, 1979. – С.210.; Дорофеева Т.М. Синтаксическая сочетаемость глагола. – Москва: Русский язык, 1986. – С.10. https://ru.wikipedia.org/wiki/Актант.

careless (e'tiborsiz); **-ous / -ious –** ismlardan yoki ba'zan fe'llardan sifat yasaydi: danger → **dangerous** (xavfli), mystery → **mysterious** (sirli), **-able / -ible –** fe'ldan sifat yasaydi, "mumkin" degan ma'no beradi: read → **readable** (o'qish mumkin), access → **accessible** (foydalanish mumkin); **-y – i**sm yoki ba'zida sifatga qo'shilib, "...ga o'xshash" degan ma'no beradi: cloud → **cloudy** (bulutli), noise → **noisy** (shovqinli); **-al –** ko'pincha otlardan sifat yasaydi: nation → **national** (milliy), accident → **accidental** (tasodifiy); **-ic / -ical –** ilm-fan yoki mavzularga oid sifatlar: drama → **dramatic,** economy → **economic / economical** (farqi bor) kabi qo'shimchalar orqali ingliz tilida sifatlar yasaladi.[6]

Bundan tashqari, **nol qo'shimcha (Zero derivation / conversion),** ya'ni ba'zida ot yoki fe'l to'g'ridan to'g'ri sifat yasaladi. Masalan, **gold** (oltin) → gold ring (oltin uzuk), **stone** (tosh) → stone wall (tosh devor) kabi leksemalarda ingliz tilida so'zlar yasaladi.

Ingliz tilda yasama so'zlar **birlashgan sifatlar (Compound adjectives)** tarzida ham yasalishi ham mumkin**. Bunda i**kki yoki undan ortiq so'z birikib bitta sifat hosil qiladi. Masalan, **part-time job, well-known author, high-quality service** kabi misollar yuqiridagi yasalishga misol bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M, Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28.

2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 28.

3. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1980. – Б.372.

4. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.199–205.

5. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2008. – Б.335.

6. Sharipov F. Ўзбек замонавий морфологик назариясининг шаклланиши, тараққиёт тенденциялари ва истиқболлари. Фил. фан. док. дисс. –Гулистон, 2022, 252 б.

7. Березин Ф.М. Общее языкознание // Учеб. пособие для студентов педагогических институтов по спец. – Москва, 1979. – С.210.

8. Дорофеева Т.М. Синтаксическая сочетаемость глагола. – Москва: Русский язык, 1986. – С.10. https://ru.wikipedia.org/wiki/Актант

9. DeGroot A.W. Structurale Sintaxis. – den Haagб 1949. – P.114 f.

[6] Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2008. – Б.335.; Sharipov F. Ўзбек замонавий морфологик назариясининг шаклланиши, тараққиёт тенденциялари ва истиқболлари. Фил. фан. док. ...дисс. –Гулистон, 2022, 252 б.